BOSHLANG‘ICH SINFLARDA LEKSIKOLOGIYANI INNOVATSION O‘RGATISH METODLARI

Boylatova Gulshoda Saloxiddin qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchi
Telefon raqam: +998 97 406 6148

KIRISH. Ta’lim-tarbiya masalasi barcha davrlarda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Til ta’limi masalasi esa tobora globallashayotgan va faol integratsiyalashayotgan davrda milliy o‘zlikni saqlash, jahon ta’lim standartlariga muvofiq milliy ta’lim metodikasining yaratilishida asosiy vositalardan biri sanaladi. Bu borada dastlabki qilinadigan ish ta’lim jarayonini to‘g‘ri va samarali tashkil etishdan iborat. Til ta’limi masalasiga boshlang‘ichsinflardayoq poydevor qo‘yiladi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limiga alohida e’tibor qaratish, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi (PISA) natijalari o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matnni tushunish darajasida bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Mazkur holat qator *lingvistik murakkabliklar* bilan bog‘liq:

– matnlarda nofaol yoki murakkab so‘zlarning mavjudligi, ularning mazmuni tushuntirilmasligi o‘quvchilarning tushunishini qiyinlashtiradi;

– lug‘at boyligi yetarli bo‘lmagan o‘quvchilar yangi yoki murakkab so‘zlarni anglashda qiynaladi;

– turli uslubdagi matnlar (ilmiy, badiiy, texnik) tushunish qobiliyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur qiyinchiliklarga ta’lim jarayonida nofaol yoki murakkab so‘zlarni tizimli ravishda tushuntirilmasligi, darslikda matn o‘quvchining yosh va darajasiga mos kelmasligi, jarayonda ko‘proq funksional va asosiy so‘zlar o‘rgatilib, murakkab terminologiya yoki nofaol so‘zlar chetda qolishi kabi omillar sabab bo‘ladi. Bir so‘z

bilan aytganda, o‘quvchi leksik fondining xilma-xil va keng qamrovli bo‘lmasligi o‘qish savodxonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Jahonda boshlang‘ich sinflarda leksikologiya bo‘limini o‘qitish xususida Thornbury, S [1], Wilkins, David A [2] , L.Haponenko [3] ; Rus pedagogikasida esa E. Боума [4], Н.Д. Гальскова [5], Т.И. Капитонова [6], И.С. Кладова [7], lar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Aynan leksikologiya bo‘limini o‘qitishdagi yondashuvlarga to‘xtalgan tadqiqotchi L.Hopkins quyidagilarni ta’kidlaydi: “Maktablardagi darslar soni, o‘qish sharoitlari va o‘quv muhitini hisobga olib, biz yosh o‘quvchilarning so‘z boyligini qanday o‘rgatish bo‘yicha umumiy strategiyani ishlab chiqishga harakat qilamiz.

Biz, birinchi navbatda, yosh o‘quvchilar bilan ishlashda ularning yoshining psixologik xususiyatlariga, xotirasi va e'tiborining fiziologik xususiyatlariga e'tibor qaratishimiz kerak. Ko‘rinib turibdiki, biz yosh o‘quvchilar va katta yoshdagi o‘quvchilarni o‘qitishda bir xil uslub va texnikani qo‘llay olmaymiz.”


Birinchi sinf o‘quvchilari (shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar) yaxshi rivojlangan spontan xotiraga ega bo‘lib, u yorqin, hissiy jihatdan to‘yingan ma'lumotlar va bolaning hayotidagi voqealarni saqlaydi. Ammo birinchi sinf o‘quvchisi maktabda yod olishi kerak bo‘lgan ko‘p narsalar uning uchun qiziqarli va jozibali. Shuning uchun, bu erda beixtiyor xotira etarli emas. Bolaning maktab darslariga kirishishi, uning faol pozitsiyasi, yuqori kognitiv motivatsiyasi xotirani rivojlantirish uchun zarur shartlar ekanligiga shubha yo‘q. Aytish joizki, xotirani rivojlantirish uchun maxsus yodlash mashqlari unchalik foydali emas, balki darslarga, alohida fanlarga qiziqishni shakllantirish, ularga ijobiy munosabatni rivojlantirish. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘rganishga qiziqish yuqori aqliy funktsiya sifatida ixtiyoriy xotirani rivojlantirish uchun yetarli emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang‘ich sinflarda leksikologiya bo‘limini o‘qitishda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga e’tibor qaratish lozim. Bunda so‘z o‘zlashtirushni baholash shkalasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bunda so‘zlarni an’anaviy osondan murakkabga tomon tizimlashtirish va sinflar kesimida taqsimlash lozim bo‘ladi. Albatta, bu jarayon uzoq va samarali izlanishlarni talab etadi. Avvalo, leksemalarni oson va murakkab guruhlarga ajratishning samarali ususllarini belgilab olish va shu asosda lingvistik ta’minotini amalga oshirish lozim bo‘ladi. Leksemalarni ajratib chiqishda ikki kategoriyaga ko‘ra tekshiruvcni amalga oshirish mumkin:

So‘zlarni tushunish bilan bog‘liq qiyinchiliklar. Bu bolaning yosh fiziologik, psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Aniqroq aytganda so‘zni idrok qilish darajasi baholanadi.

Ikkinchi tekshiruv jarayoni so‘zlarning qo‘llanilish darajasini hiusobga olishni nazarda tutad. Ya’ni muloqot kontekstida faol bo‘lmagan leksika o‘quvchi ongida hech qanday assotsiatsiyalar hosil qilmaydi. Bu esa so‘zni mutlaqo tushunmaslik, matnni tushunishda esa ortiqcha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Tahlil va natijalar. O‘quvchining so‘zni idrok qilishi uni tushunishi bilan bog‘liq. Muayyan matn va undagi so‘zlarni tushunilganligini o‘quvchi ongida hosil qilingan assostsiatsiyalar orqali aniqlash mumkin. Masalan. Kosmonavt so‘zi 1-sinf o‘quvchilarining ko‘pchiligida xotirada saqlangan axborot asosida tasvir hosil qilishi mumkin, ammo to‘liq idrok etilmaydi. Uchmoq leksemasi esa boshlang‘ich sinflarda turli assotsiatsiyalarni hosil qilishi mumkin. Masalan:



Bu jarayonda kosmonavt leksemasining nofaolligi, uchmoq leksemasining esa faolligi anglashiladi. Idrok bilan bog‘liq holda leksemalarni o‘zlashtirish fonetik-fonematik idrokka ham bog‘liq. Masalan talaffuzi qiyin, yoki boshqa tillardan o‘zlashgan qatlam leksikasi o‘quvchida fonetik-fonematik idrok bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi, ya’ni o‘quvchi bunday so‘zlarni qiyinchilik bilan talaffuz qiladi yoki mutlaqo talaffuz qilolmaydi. Masalan, minerallashtirish, landshaft, taraqqiyot singari so‘zlar talaffuzi murakkab. Shu boisdan o‘quvchida muayyan tushuncha va tasavvurlarni hosil qilmaydi. Leksikologiya bo‘limini o‘qitishda o‘quvchi yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda so‘zlarni guruhlarga bo‘lish, hamda osondan murakkabga tamoyili asosida baholash lozim. Bunda audio va visual idrokka pedagog tomonidan e’tibor qaratilishi lozim.

Muhokama va xulosalar. Shunday qilib, boshlang‘ich maktab leksikologiya bo‘limini o‘rganish va so‘z boyligini to‘plash uchun hal qiluvchi bosqichdir. Lug‘at keyingi o‘rganish uchun asos yaratadi. O‘qituvchining vazifasi bolalar o‘zlarining muloqot amaliyotida foydalanishlari uchun imkon qadar ko‘proq leksik elementlarni o‘rganish va birlashtirishdir. Albatta, birgina darslik leksikologiyani o‘rganishda

qo‘yilgan maqsadlarga erishishni ta’minlay olmaydi. Boshqa vositalardan keng foydalanish kerak: audio va video materiallar, uyda o‘qish uchun kitoblar, matnli topshiriqlar. So‘z oo‘zlashtirish nafaqat sinfda amalga oshiriladi, shuning uchun dars va sinfdan tashqari ishlarni uyg‘unlashtirish kommunikativ ko‘nikma va ko‘nikmalarning samarali shakllanishini ta'minlaydi, o‘quvchilarning mustaqilligi, kommunikativ, kognitiv va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Thornbury, S. How to teach vocabulary. Pearson Education Limited. 2002. 186 p.

Wilkins, David A. Linguistics in Language Teaching. Cambridge, MA: MIT Press. 1972. 243 p.

Hopkins L. **Teaching vocabulary in the primary school English classes.https://revolution.allbest.ru/pedagogics/01447012_0.html**

Bouma E., Klementieva T. Family and Pets: Pupil’s book and Workbook. – M.: АСТ-ПРЕСС ШКОЛА, 2007. – 51 с.

Гальскова Н.Д. Современная цель обучения иностранным языкам: от комплексного подхода к интеграции // Теория и практика обучения иностранным языкам: традиции и инновации: Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. М.: Тезаурус, 2013. С. 25-34.

Капитонова Т.И., Московкин Л.В. Методика обучения русскому языку как иностранному на этапе предвузовской подготовки. М.: Litres, 2015. 276 с

Кладова И.С. Технология полного усвоения программы на уроках английского языка. Методические рекомендации по формированию лексических и грамматических навыков: учебное пособие. Березники, 2010. 15 с